

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ERKIN A'ZAM NASRIDA SINTAKTIK TAKRORNING MATN HOSIL QILUVCHI VA LINGVOPOETIK FUNKSIYALARI

Nomozova Mohichehra Rustamovna

Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: nnamozova64@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-2545-8226>

Annotatsiya.

Maqolada Erkin A'zam nasrida sintaktik takrorning matn hosil qiluvchi va lingvopoetik imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda sintaktik takror faqat nutqning ekspressivligini kuchaytiruvchi stilistik usul sifatida emas, balki badiiy matnning kompozitsion yaxlitligini, semantik izchilligini va psixologik dinamikasini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. "Pakananing oshiq ko'ngli", "Shovqin", "Bizning tog'a" va "Shoirning to'yi" asarlaridan olingan parchalar tavsifiy, struktur-semantik, kontekstual hamda lingvopoetik tahlil metodlari asosida o'rganildi. Natijada sintaktik parallelizm, dialogik takror, gradatsiya va antitezaning yozuvchi individual uslubidagi asosiy struktur modellari aniqlanib, ularning ritm, dramatizm, kulminatsiya, kontrast va qahramon ichki nutqini modellashtirishdagi vazifalari asoslandi. Sintaktik takror Erkin A'zam nasrida badiiy matnni shakllantiruvchi hamda o'quvchi idrokini boshqaruvchi muhim vosita ekani xulosalandi.

Kalit so'zlar: sintaktik takror, sintaktik parallelizm, lingvopoetika, matn yaxlitligi, kompozitsiya, gradatsiya, antiteza, dialogik takror, psixologik tasvir, Erkin A'zam.

ТЕКСТООБРАЗУЮЩИЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ СИНТАКСИЧЕСКОГО ПОВТОРА В ПРОЗЕ ЭРКИНА АЪЗАМА

Номозова Мохичехра Рустамовна

Термезский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются текстообразующие и лингвопоэтические возможности синтаксического повтора в прозе Эркина Аъзама. Синтаксический повтор рассматривается не только как стилистический приём усиления экспрессивности, но и как механизм, обеспечивающий композиционную целостность, смысловую последовательность и психологическую динамику художественного текста. Материалом исследования послужили фрагменты произведений «Влюблённое сердце Коротышки», «Шум», «Наш дядя» и «Свадьба поэта». Применены описательный, структурно-семантический, контекстуальный и лингвопоэтический методы. Выявлены основные модели авторского употребления повтора: синтаксический параллелизм, диалогический повтор, градация и антитеза. Установлено, что данные модели формируют ритм, усиливают драматизм, создают кульминацию и контраст, а также моделируют внутреннюю речь персонажа. Делается вывод, что синтаксический повтор выступает одним из ключевых средств организации композиционного каркаса прозы писателя и управления читательским восприятием.

Ключевые слова: синтаксический повтор, синтаксический параллелизм, лингвопоэтика, целостность текста, композиция, градация, антитеза, диалогический повтор, психологизм, Эркин Аъзам.

TEXT-FORMING AND LINGUOPOETIC FUNCTIONS OF SYNTACTIC REPETITION IN ERKIN A'ZAM'S PROSE

Nomozova Mohichehra Rustamovna

Termez State University, Basic Doctoral Student.

Abstract.

The article examines the text-forming and linguopoetic potential of syntactic repetition in Erkin A'zam's prose. Syntactic repetition is interpreted not merely as a stylistic device that increases expressiveness, but as a mechanism that ensures compositional integrity, semantic continuity, and psychological dynamics in literary discourse. The study is based on selected passages from "Pakananing oshiq ko'ngli", "Shovqin", "Bizning tog'a", and "Shoirning to'yi". Descriptive, structural-semantic, contextual, and linguopoetic methods are employed. The analysis identifies syntactic parallelism, dialogic repetition, gradation, and antithesis as the principal structural

models of repetition in the writer's individual style. These models generate rhythm, intensify dramatic tension, create culmination and contrast, and represent the gradual development of a character's inner speech. The findings demonstrate that syntactic repetition functions as a major device for constructing the compositional framework of Erkin A'zam's prose and guiding the reader's perception.

Keywords: syntactic repetition, syntactic parallelism, linguopoetics, textual integrity, composition, gradation, antithesis, dialogic repetition, psychological representation, Erkin A'zam.

Kirish. Zamonaviy matn tilshunosligi badiiy asarni o'zaro bog'langan gaplar yig'indisi emas, balki struktur, semantik va kommunikativ munosabatlar asosida shakllangan yaxlit tizim sifatida o'rganadi. Bunday yondashuv til birliklarining vazifasini alohida gap doirasida emas, balki butun matn arxitektonikasi bilan bog'liq holda baholashni talab qiladi. Sintaktik takror ana shunday ko'p funksiyali hodisalardan bo'lib, u nutqning ifodaliligini kuchaytirish bilan birga, matn qismlarini yagona semantik maydonga birlashtiradi, ritmik tartibni yuzaga keltiradi va o'quvchi e'tiborini muayyan tayanch nuqtalarga yo'naltiradi [1; 3; 4].

O'zbek tilshunosligida badiiy matn birliklarini umumiy struktur tizim ichida tekshirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov va Sh. Haydarov badiiy matnning haqiqiy estetik qiymati til birliklarining butun matn mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki orqali namoyon bo'lishini qayd etadilar [1]. T. H. Asadov esa matn yaxlitligini ta'minlovchi mazmuniy va struktur aloqalar tizimida takrorning muhim koheziv vosita ekanini ko'rsatadi [2]. Demak, sintaktik takrori faqat bir xil gap yoki konstruksiyaning qayta qo'llanishi sifatida izohlash uning matn yaratishdagi murakkab tabiatini to'liq ochib bermaydi.

Erkin A'zam nasri so'zlashuvga yaqin tabiiy sintaksisi, ichki nutq va dialogning faol qo'llanishi, kinoya, psixologik taranglik hamda keskin ma'naviy burilishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi bir xil sintaktik qoliplarni ketma-ket joylashtirish orqali ko'pincha voqeaning tashqi rivojini emas, qahramon tafakkurining ichki harakatini tasvirlaydi. Shu jihatdan adib asarlaridagi sintaktik takrorlarni matnning kompozitsion tuzilishi va lingvopoetik vazifalari bilan bog'liq holda tadqiq etish dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi — Erkin A'zam nasrida sintaktik takrorning asosiy struktur modellarini aniqlash va ularning matn yaxlitligi, ritm, psixologik tasvir, dramatism hamda kompozitsion rivojga ta'sirini ilmiy asoslash. Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchining «**Pakananing oshiq ko'ngli**», «**Shovqin**», «**Bizning tog'a**» va «**Shoirning to'yi**» asarlaridan tanlab olingan parchalar olindi. Tadqiqot predmeti esa ushbu parchalarda sintaktik takrorning struktur-semantik va lingvopoetik funksiyalaridan iborat.

Maqolada tavsifiy, struktur-semantik, kontekstual, lingvopoetik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod takroriy konstruksiyalarning formal belgilarini aniqlashga, struktur-semantik metod esa bir xil sintaktik qoliplar o'rtasidagi grammatik va mazmuniy munosabatlarni ochishga xizmat qildi. Kontekstual tahlil takrorning alohida gapdagi emas, balki keng matn parchasidagi funksiyasini belgilash imkonini berdi. Lingvopoetik tahlil orqali konstruksiyalarning estetik ta'siri, ritmi, psixologizmi va kompozitsion vazifalari izohlandi. Qiyosiy yondashuv esa parallelizm, dialogik takror, gradatsiya va antiteza modellarining umumiy hamda farqli jihatlarini ko'rsatishda qo'llandi.

Tahlil jarayonida uch bosqichli mezon asos qilib olindi: birinchidan, takrorlangan sintaktik modelning formal qurilishi; ikkinchidan, uning matn doirasidagi semantik vazifasi; uchinchidan, hosil bo'lgan badiiy-kompozitsion natija. Bunday yondashuv sintaktik takrori shakl va mazmun birligida baholashga imkon beradi.

Sintaktik takror Erkin A'zam nasrida gap qurilishining mexanik qaytarilishi bilan cheklanmaydi. U matn bo'laklarini o'zaro bog'laydi, fikrning bosqichma-bosqich rivojini ko'rsatadi, qahramon ruhiy holatining o'zgarishini modellashtiradi va muallif bahosining yashirin yoki ochiq ifodasiga aylanadi. Tahlil qilingan materiallarda takrorning to'rtta yetakchi modeli kuzatildi: sintaktik parallelizm, dialogik takror, gradatsion takror va antitezaga asoslangan takror.

1-jadval. Erkin A'zam nasrida sintaktik takrorning asosiy modellari

Sintaktik model	Formal ko'rsatkich	Asosiy vazifa	Matndagi natija
Parallelizm	Bir xil gap modeli yoki predikativ qurilish	Ritm va semantik izchillik	Kompozitsion uyg'unlik, fikrning kengayishi
Dialogik takror	Savol-javob yoki replikalarning takrorlanishi	Dramatism va kommunikativ bosim	Ishonchsizlik, kutish, taranglik
Gradatsiya	Bir xil modelning kuchayib boruvchi ketma-ketligi	Semantik rivoj va emotsional kuchayish	Kulminatsiya, konseptning ko'p qirraliligi
Antiteza	Takroriy modelda qarama-qarshi birliklarning almashishi	Qarama-qarshilikni ajratish	Kontrast, konflikt va ma'naviy burilish

Jadval ma'lumotlari sintaktik takrorning formal model, funksional yo'nalish va badiiy natija o'rtasida izchil bog'lanish mavjud ekanini ko'rsatadi. Bu modellar alohida holda emas, ko'pincha bir-biri bilan qo'shib keladi:

parallelizm gradatsiyani yuzaga keltirishi, dialogik takror dramatik antitezani kuchaytirishi yoki inkor konstruksiyalari bir vaqtning o'zida ritm va kulminatsiyani hosil qilishi mumkin.

Erkin A'zam individual uslubida sintaktik parallelizm fikrni tartibga soluvchi va matn ritmini belgilovchi asosiy vositalardan biridir. **«Pakananing oshiq ko'ngli»** qissasidagi quyidagi parcha bunga misol bo'la oladi:

«Ko'ngil bog'laganlari kutilmagan tuhfadan hayrat-hayajonga tushishadi, minnatdor bo'lib, evaziga unga kulib-kulib boqishadi, rahmatlar aytishadi, lekin... yana uchratganda yo tanimagandek indamay o'tib ketishadi, yo Pakana ularni ittifoqo boshqa birov bilan ko'rib qoladi» [6].

Parchadagi **«hayrat-hayajonga tushishadi»**, **«kulib-kulib boqishadi»**, **«rahmatlar aytishadi»** predikativ birliklari o'xshash grammatik model asosida qurilgan. Ushbu parallel qator dastlab minnatdorlik va ijobiy munosabatni ifodalovchi ritmik fon hosil qiladi. Biroq keyingi qismda **«yo... yo...»** konstruksiyasi takrorlanib, sintaktik maromni keskin o'zgartiradi. Natijada matn ikki qarama-qarshi semantik qismga — umid va hafsalaning pir bo'lishiga ajraladi. Qarama-qarshilik muallifning alohida izohi bilan emas, sintaktik modelning almashishi orqali yuzaga chiqadi.

«Ko'ngil — podsho. Ko'ngil — xazina. Ko'ngil — balo» [6] qatorida esa ega + kesim modeli uch marta takrorlanadi. Formal jihatdan gaplar mutlaq parallel, semantik jihatdan esa har bir keyingi hukm oldingisini inkor qilmay, **«ko'ngil»** konseptining mazmunini kengaytiradi. **«Podsho»** hokimlik va erkinlikni, **«xazina»** ichki boylikni, **«balo»** esa iztirob va ziddiyatni anglatadi. Shunday qilib, bir xil sintaktik qolip ritmik simmetriya bilan birga semantik gradatsiyani ham yuzaga keltiradi.

«Dunyo novchalarniki ekan. Dunyo ko'rkamlarniki ekan» [6] jumllarida ham bir xil sintaktik model saqlanadi, faqat kesim tarkibidagi belgi almashadi. Takror qahramonning individual alamini umumlashgan ijtimoiy-falsafiy hukm darajasiga olib chiqadi. Agar mazkur mazmun bitta qo'shma gap orqali berilganida, uning zarbdorligi va ichki qat'iyati sezilarli darajada kamaygan bo'lardi. Parallel takror esa hukmning ritmik mustaqilligini ta'minlab, keyingi matn rivoji uchun semantik tayanch yaratadi.

Dialogik nutqda takror ko'pincha yangi axborot berishdan ko'ra, so'zlovchilar o'rtasidagi munosabatni ochish vazifasini bajaradi. **«Bizning tog'a»** hikoyasidagi qisqa dialog bunga yaqqol misoldir:

— *Kelasanmi?*

— *Kelaman.*

— *Rostdan kelasanmi?*

— *Kelaman" [8].*

Mazkur dialogda **«Kelasanmi?»** — **«Kelaman»** modeli ikki marta takrorlangan. Ikkinchi savolda **«rostdan»** modal birligining qo'shilishi mazmunni tubdan yangilamaydi, balki so'rovchining ishonchsizligini kuchaytiradi. Javobning o'zgarish shaklda takrorlanishi esa tashqi qat'iyat bilan ichki ikkilanish o'rtasidagi taranglikni yuzaga keltiradi. Demak, dialogik takror replikalar orasidagi mantiqiy izchillikni saqlash bilan birga, kommunikativ bosim va psixologik kutilishni oshiradi.

Bunday konstruksiyada takrorning muhim xususiyati uning «ortiqcha» emasligidir. Formal jihatdan bir xil javob qayta berilsa-da, kontekst o'zgargani sababli ikkinchi **«Kelaman»** birinchi javob bilan aynan bir mazmunga ega emas: unda tasdiqni mustahkamlash, suhbatdoshni ishontirish va o'z qarorini ichki ravishda qayta tasdiqlash funksiyalari mujassamlashadi. Shu tariqa qisqa dialog mustaqil psixologik-kompozitsion bo'lakka aylanadi.

Sintaktik takror qahramon tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ifodalashda ayniqsa samaralidir. **«Shovqin»** romanidagi quyidagi jumla fikrning so'roq konstruksiyalari orqali harakatlanishini ko'rsatadi:

«Darvoqe, xatomidi bu, yana qaytib yosh bo'lganda, o'shanday holatga tushganida boshqacha yo'l tutarmidi? Bunisini endi Xudo biladi, Xudo!» [7].

Parchada qahramon avval o'tmishdagi qarorini shubha ostiga oladi, so'ng ehtimoliy muqobil xatti-harakatni tasavvur qiladi va nihoyat **«Xudo biladi, Xudo»** takrori bilan fikrni yakunlaydi. Takrorlangan **«Xudo»** leksemasi sintaktik yakun vazifasini bajarib, javobsizlik, o'jizlik va ichki tanazzulni kuchaytiradi. So'roq konstruksiyalarining ketma-ketligi tashqi voqeani emas, ongda tahlil bosqichlarini namoyon etadi. Shu sababli sintaktik qurilish qahramon portretining ichki kompozitsion tayanchiga aylanadi.

Gradatsion takrorning asosiy belgisi har bir keyingi birlikning oldingi birlikka ma'naviy yoki emotsional qo'shimcha yuk olib kelishidir. Bu xususiyat Erkin A'zam nasrida ichki monolog, afsus, gumon va o'z-o'zini so'roq qilish holatlarida faol kuzatiladi. Bir xil sintaktik qolipning takrorlanishi tafakkurning aylana bo'ylab qaytishini emas, uning tobora chuqurlashib borishini ifodalaydi.

Yozuvchi sintaktik takrordan qarama-qarshi ma'nolarni keskin ajratish va konfliktni bosqichma-bosqich kuchaytirish uchun ham foydalanadi. **«Shoirning to'yi»** qissasidagi inkor qatori bunga misoldir:

«Yo'q, sovuqdan emas, yo'q alamdanda emas, yo'q til-zabonsizlikdan emas, yo'q mayib-u muhtalolikdan emas, yo'-o'q!» [9].

«Yo'q... emas» modelining takrorlanishi oddiy inkorni emas, sabablarni birma-bir rad etish jarayonini ifodalaydi. Har bir yangi konstruksiya qahramon iztirobining taxminiy tashqi sababini chetga chiqarib, o'quvchini ichki fojiani tub mohiyatiga yaqinlashtiradi. Takror qatori kengaygani sari ritm tezlashadi, emotsional bosim ortadi va cho'ziq **«yo'-o'q»** shakli kulminatsion yakunga aylanadi. Bu o'rinda sintaktik takror ritm, gradatsiya va antitezani bir vaqtda shakllantirib, kompozitsion konflikt rivojini boshqaradi.

Antitezaga asoslangan takrorning yana bir ko'rinishi **«Pakananing oshiq ko'ngli»** asaridagi ijobiy predikativ qator bilan **«yo... yo...»** shaklidagi salbiy natijaning qarama-qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi. Demak, antiteza faqat antonimik leksik birliklar orqali emas, turli sintaktik ritmlarning to'qnashuvi orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Erkin

A'zam uslubida aynan shu sintaktik kontrast kinoya va ruhiy sinishni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlillar sintaktik takrorning Erkin A'zam nasrida uch darajada faoliyat ko'rsatishini ko'rsatadi. Birinchi daraja — lokal daraja bo'lib, takror qo'shni gaplar yoki replikalarni grammatik jihatdan bog'laydi. Ikkinchi daraja — semantik-kompozitsion daraja: takror matnning muhim mazmuniy tugunlarini belgilaydi, qarama-qarshi qismlarni ajratadi va kulminatsiyani tayyorlaydi. Uchinchi daraja — kommunikativ-psixologik daraja: takror qahramonning ishonchi, gumoni, iztirobi, ichki qarama-qarshiligi yoki qat'iyatini o'quvchiga bevosita his qildiradi.

Shu ma'noda sintaktik takror matnning **kohezivligi va kogerentligini** bir vaqtda ta'minlaydi. Kohezivlik formal sintaktik qoliqlarning qaytarilishi orqali yuzaga kelsa, kogerentlik takrorlangan birliklar orasidagi semantik rivoj, sabab-natija, qarama-qarshilik yoki kuchayish munosabatlari orqali shakllanadi. Takrorlangan konstruksiyalar matnni bo'lib yubormaydi; aksincha, uning turli qismlarini yagona ritmik va ma'noviy maydonga birlashtiradi.

Y. V. Vasilyeva takroni matnning struktur-semantik birligini ta'minlovchi tamoyil sifatida izohlaydi [4]. N. Kemertelidze va T. Manjavidze esa sintaktik takrorning o'quvchi diqqatini tayanch nuqtalarga yo'naltirishi va parallel konstruksiyalar vositasida ritm yaratishini ko'rsatadi [5]. Erkin A'zam asarlari tahlili mazkur nazariy qarashlarni o'zbek nasri materiali asosida tasdiqlaydi. Biroq yozuvchi uslubining o'ziga xosligi shundaki, takror ko'pincha ochiq pafosga emas, ichki kinoya, sukut ortidagi taranglik va psihologik ikkilanishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Erkin A'zam nasridagi sintaktik takrorlarning parallelizm, dialogik takror, gradatsiya va antiteza modellariga ajratilib, ularning **«formal model — funksional vazifa — badiiy natija»** munosabati asosida tizimlashtirilganidir. Mazkur tasnif yozuvchi sintaksisini faqat stilistik bezaklar yig'indisi sifatida emas, balki individual badiiy tafakkurni tashkil etuvchi yaxlit mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Erkin A'zam nasrida sintaktik takror badiiy ifodaning yordamchi elementi emas, balki matn tuzilishini tashkil etuvchi markaziy lingvopoetik vositalardan biridir. U formal takrorlanish orqali gaplar va replikalarni bog'laydi, semantik rivoj orqali matnning kogerentligini ta'minlaydi hamda ritmik qurilish vositasida o'quvchi idrokini boshqaradi.

Tahlil natijasida sintaktik takrorning to'rtta asosiy modeli — parallelizm, dialogik takror, gradatsiya va antiteza aniqlandi. Parallelizm kompozitsion uyg'unlik va ritmni, dialogik takror ishonchsizlik hamda psihologik taranglikni, gradatsiya fikr va hissiyotning bosqichma-bosqich kuchayishini, antiteza esa kontrast va kompozitsion konfliktini yuzaga keltiradi. Ushbu modellar ko'pincha o'zaro qo'shilib, bitta parchada bir nechta badiiy vazifani bajaradi.

Yozuvchi bir xil sintaktik qoliqlarni ketma-ket qo'llash orqali tashqi voqeani bayon qilishdan ko'ra, qahramon ongining ichki harakatini, ikkilanishini, umidini, iztirobini va ruhiy sinishini modellashtiradi. Shu sababli sintaktik takror Erkin A'zam nasrining psihologizmi va individual ritmini belgilovchi muhim uslubiy ko'rsatkichdir.

Kelgusida adibning hikoya, qissa va romanlari bo'yicha kengroq korpus shakllantirib, sintaktik takrorlarning chastotasi, janrlar kesimidagi farqlari, muallif nutqi va personaj nutqidagi nisbatini statistik hamda korpus-lingvistik metodlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalish Erkin A'zam individual uslubining sintaktik parametrlarini yanada aniq tavsiflash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. *Badiiy matnning lisoniy tahlili*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 112 b.
2. Asadov T. H. *Matn tilshunosligi*. – Buxoro: Durdona, 2023.
3. Арнольд И. В. *Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования)*. 3-е изд. – Москва: Просвещение, 1990. – 300 с.
4. Васильева Ю. В. *Повтор как принцип организации фольклорного текста: лексико-синтаксический повтор в произведениях русского и англо-шотландского фольклора: дис. ... канд. филол. наук*. – Саратов, 2004. – 213 с.
5. Kemertelidze N., Manjavidze T. Stylistic Repetition, Its Peculiarities and Types in Modern English // *European Scientific Journal*. – 2013. – Vol. 9, No. 10.
6. A'zam E. *Pakananing oshiq ko'ngli: qissa // Erkin A'zam asarlari*. – Ziyouz elektron kutubxonasi. – Murojaat sanasi: 04.08.2026.
7. A'zam E. *Shovqin: roman, qissa, hikoyalar*. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. A'zam E. *Bizning tog'a: hikoya // Erkin A'zam asarlari*. – Ziyouz elektron kutubxonasi. – Murojaat sanasi: 04.08.2026.
9. A'zam E. *Shoirning to'yi: qissa // Erkin A'zam asarlari*. – Ziyouz elektron kutubxonasi. – Murojaat sanasi: 04.08.2026.